


# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## 2023- YIL YANVAR-IYUN OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR






2023- yilning yanvar-iyun oylarida 18 473,5 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ulardan korxonalar, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 39,0 % yoki 7 213,4 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022- yildagi ulushiga nisbatan 2,7 % punktga kamayib, 9,9 % ni yoki 1 835,3 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 16 638,2 mlrd. so`m yoki jami investitsiyalarning 90,1 % investitsiyalari o`zlashtirilib, 2022- yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga ko`paydi.



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm




2023- yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 5593,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 30,3 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,8 % i yoki 1619,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1635,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,8 % ni tashkil etdi.

## 2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi mlrd.so'mda	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan %da	Ulushi % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>18 473,5</b>	<b>137,7</b>	<b>100</b>
Nurafshon sh	749,8	89,0	4,1
Olmaliq sh	5 810,7	301,1	31,5
Angren sh	726,6	119,5	3,9
Bekobod sh	1 235,0	138,3	6,7
Ohangaron sh	337,8	125,1	1,8
Chirchiq sh	1 236,8	167,3	6,7
Yangiyo'l sh	189,2	94,3	1,0
Oqqo'rg'on t	109,8	177,9	0,6
Ohangaron t	1 422,5	121,8	7,7
Bekobod t	245,3	124,8	1,3
Bo'stonliq t	622,3	103,3	3,4
Bo'ka t	125,3	90,5	0,7
Quy Chirchiq t	1 042,9	110,0	5,6
Zangiota t	1 072,9	74,7	5,8
Yuqori Chirchiq t	646,9	113,7	3,5
Qibray t	931,5	86,1	5,0
Parkent t	180,6	91,5	1,0
Piskent t	215,7	83,1	1,2
O'rta Chirchiq t	322,2	101,2	1,7
Chinoz t	214,3	120,1	1,2
Yangiyo'l t	525,7	146,8	2,8
Toshkent t	509,9	120,0	2,8

## Qurilish-mantaj ishlari



## Mashina, uskuna, inventar

## Boshqa xarajatlar



Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha 8948,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 48,4 % mashina, uskuna va inventarlarga 8375,3 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 45,3 % ini tashkil etdi, va boshqa xarajatlarga 1150,0 mlrd. so'm (6,3 %) o'zlashtirildi.

69,1 %

## Yangi qurilish

17,2 %

## Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya


13,7 %

## Boshqa yo'nalishlar


Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Olmaliq shaxrida kuzatildi – 52,9 % yoki 3073,4 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Chirchiq shaxrida kuzatilib, 19,3 % ni yoki 239,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Olmaliq shaxrida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 40,6 % yoki 2356,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


**Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da**




**Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da**



## Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




## HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSİYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSİYALARGA NISBATAN, % DA





## Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami

moliyalashtirish manbalari hisobidan 5490,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 29,7 % i o'zlashtirilgan.

### Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


**METALLURGIYA SANOATI**  
1346,6 mlrd. so'm  
Ulushi 7,3 %

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH**  
693,8 mlrd. so'm  
ulushi 3,8 %

**BOSHQA NOMETALL MINERAL MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH**  
1523,1 mlrd. so'm  
ulushi 8,2 %

Tog'-kon sanoatida jami 5 491,6 mlrd.so'm yoki jami investitsiyalar hajmining 29,7 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 29,6 % i yoki 5 460,9 mlrd. so'mi Metall rudalarini qazib olish sohasiga tegishlidir.

### Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so'm

	Jami	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Toshkent viloyati	<b>8623,7</b>	<b>1635,1</b>	<b>651,7</b>	<b>6336,9</b>
Nurafshon sh	163,4	66,8	11,7	85,0
Olmalik sh	4 872,4	9,0	-	4 863,4
Angren sh	348,4	178,0	-	170,4
Bekobod sh	544,6	61,9	-	482,7
Ohangaron sh	26,3	7,2	-	19,1
Chirchiq sh	134,5	77,3	57,2	-
Yangiyo'l sh	39,2	22,8	16,4	-
Oqqo'rg'on t	53,5	-	-	53,5
Ohangaron t	637,9	637,9	-	-
Bekobod t	43,9	43,9	-	-
Bo'stonliq t	127,1	15,0	112,1	-
Bo'ka t	27,2	5,7	-	21,5
Quyichirchiq t	355,8	76,7	9,1	270,0
Zangiota t	305,0	151,6	153,4	-
Yuqori Chirchiq t	186,3	96,6	-	89,7
Qibray t	248,3	32,8	166,6	48,9
Parkent t	-	-	-	-
Piskent t	19,5	2,3	-	17,2
O'rta Chirchiq t	14,0	14,0	-	-
Chinoz t	60,2	19,6	-	40,6
Yangiyo'l t	297,3	116,1	125,2	56,0
Toshkent t	118,9	-	-	118,9

**2023- yil yanvar-iyun oylarida 8 623,7 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 46,7 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.**

**Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1635,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 6988,6 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.**

## ETIBORINGIZ UCHUN RAXMAT

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: **(71) 202-86-70,**